



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI-O'QISH SAVODXONLIGI FANINI O'RGATISHNING MAZMUN MOHIYATI

Holmatova Muzayyan Mubashshirovna

Qo'qon DU o'qituvchisi

Murodova Mubina

Qo'qon DU talabasi

Annotatsiya. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotida ko'plab o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta'lim sohasida katta islohotlar amalga oshirildi. “Men Abdulla Avloniynig ”Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdur. Chunki ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, grammatika, morfologiya, ko'nikma, fonetika, grafika

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasash usullari haqidagi (so'z-yasalishiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasashiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo'ydi. Barcha sohalardagi kabi ta'lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Boshlang'ich ta'lim" bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang'ich

ta'lim darsliklari va metodik qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o'tamoqda. Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining „Kirish“ qismida „Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urfodatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi“, - deb alohida ta'kidlangan.

Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Davlat ta'lim standartida ta'kidlanganidek, „Boshlang'ich ta'lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talab“da ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmuni ta'limning mazkur bosqichiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib belgilanadi. „Ta'lim to'g'risida“gi qonunda „Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir“, deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda „Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining maqsadi, vazifalari sifatida DTSda quyidagilar belgilab berilgan:

1. ..bolaning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

2. ...o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o'rgatish.

3. ...yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasini shakllantirish.

4. O'qish sur'atini oshirish, ta'limning shu bosqichi uchun xos bo'lgan sidirg'a o'qishni egallashlariga erishish.

5. Fikrni yozma bayon etish bo'yicha belgilangan quyidagi ko'nik-malarni egallash:

- a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- b) tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;
- d) tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- e) imloviy savodxonlikni egallashlariga erishish¹⁸.

Bularni amalga oshirish ona tili ta'limi siklidagi fanlarning, ya'ni savod o'rgatish, o'qish va ona tilining vazifasidir. Bu vazifalarni ado etish ko'p jihatdan ta'lim mazmunni to'g'ri belgilashga bog'liq. Ona tili ta'limi mazmuni aniq va ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri belgilansagina, oldinga qo'yilgan talablar to'liq bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A. 4-sinf “Ona tili” darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari. T. 2003 yil. 43-bet.

2.Qosimova K.,Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariev Sh.Ona tili o‘qitish metodikasi.Darslik. T., “Noshir” 2009 yil. 59-bet.

3. .G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. T.: “O‘qituvchi”, 2012 yil.

4 Mirzaahmedov A. O‘quvchilar faolligini oshirishda noan'anaviy darslar. “Til va adabiyot ta'limi” jurnali. 1996 yil. 3-son.